O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI
OLMALIQ SHAHAR HOKIMI
QARORI

Olmaliq shahri, Amir Temur ko’chasi, 47

2022 - yil 26 - dekabr 427-10-147-Q/22 Olmaliq shahar hokimligi

Uy va turar joyning inventar yig‘majildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat kadastrlari to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-son bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomning 10-, 12-bandlari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-, 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Uy va turar joyning inventar yig‘majildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Kadastrlar palatasi tuman bo‘limi, ushbu qaror bilan tasdiqlangan “Uy va turar joyning inventar yig‘majildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi” asosida ish yuritilishini ta’minlasin.

3. Shahar hokimining matbuot kotibi – axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Ro‘ziyeva),

ushbu qaror “Olmaliq hayoti” va “Алмалыкский рабочий” gazetalarida va veb-saytida joylashtirilsin va rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kirgan deb husoblansin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari Z.Kenjayev zimmasiga yuklansin.

Olmaliq Shahar Hokimi **Q.Xamdamov**

Olmaliq shahar hokimining
2022 yil 26 dekabrdagi
427-10-147-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Uy va turar joyning inventar yig‘majildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar berish tartibi

Uy va turar joyning inventar yig‘majildi uy yoki turar joy foydalanishga qabul qilinib olinayotganda yohud turar joy uy-joy fondiga kiritilayotganda tuziladi.

Keyingi texnik hisobga olish uylar va turar joylarni vaqti-vaqti bilan rejali xatlashlar o‘tkazish yo‘li bilan besh yilda kamida bir marta, shuningdek rejadan tashqari tekshirishlar jarayonida hisobga olish ko‘rsatkichlari o‘zgarishlari aniqlanishiga qarab amalga oshiriladi.

Uy va turar joyning inventar yig‘majildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nusxalar mustaqil hujjatlarni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 20-yanvardagi 18-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida uy-joy fondini davlat yo‘li bilan hisobga olishning yagona tizimi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan Uy-joy fondi inson yashashi uchun yaroqli bo‘lgan turar joydan, shu jumladan, uylar, kvartiralar, xizmat turar joylari, maxsus uylar (yotoqxonalar, vaqtinchalik uy-joy fondi uylari, nogironligi bor shaxslar, faxriylar, yolg‘iz qariyalar, internat-uylar, shuningdek bolalar uylari va va boshqa maxsus maqsadli uylar)dan iborat bo‘lgan fond.

Uy-joy fondini hisobga olish texnik hujjatlar yig‘majildi, ro‘yxatdan o‘tkazish daftarlari, inventar hujjatlar yig‘majildida shakllangan ro‘yxatdan o‘tkazilgan hujjatlarning nusxalari, boshqa inventarizasiya hujjatlari tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi arxivida saqlanadi.

Uy va turar joyning inventar yig‘ma jildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar va nushalar berish uchun yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasiga ariza bilan murojaat qiladi.

Arizalar tuman yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi tomonidan qabul qilib olinadi va shu kunning o‘zida arizalar reyestriga qayd qilinadi.

Yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning ishonchli vakillari uy va turar joyning inventar yig‘majildidan olingan ma’lumotlar ayrim turlaridan ko‘chirmalar 128 va nushalar berish uchun tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasiga telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat ko‘rinishida ariza berishlari mumkin.

Ushbu nusxalardan iborat kadastr yig‘majildining har bir varog‘iga tuman (shahar) yer tuzish va ko‘chmas mulk kadastri davlat korxonasi rahbari tomonidan “asliga to‘g‘ri” degan yozuv kiritiladi va imzolanadi hamda ariza kelib tushgan kundan boshlab ikki ish kun ichida huquq egasiga topshiriladi.